



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

20 22 y. " 01 " mart

Nº 01-10/47

Mahalladagi yoshlar yetakchisining namunaviy lavozim yo'riqnomasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qaroriga muvofiq, mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, vakolatlari va javobgarligini belgilash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. Mahalladagi yoshlar yetakchisining namunaviy lavozim yo'riqnomasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Yoshlar ishlari agentligining:

tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari **uch kun muddatda** ilovadagi namunaviy lavozim yo'riqnomasiga asosan mahalladagi yoshlar yetakchisining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlasin;

hududiy boshqarmalar boshliqlari tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari bilan birgalikda mahalladagi yoshlar yetakchilarining lavozim yo'riqnomalariga qat'iy rioya qilishini doimiy nazorat qilib borsin;

Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (A.Muminov) tarkibiy tuzilmalar boshliqlari bilan birgalikda mahalladagi yoshlar yetakchisi faoliyatini tahlil qilish asosida ilovadagi namunaviy lavozim yo'riqnomasini takomillashtirish bo'yicha Agentlik rahbariga takliflar kiritib borsin.

3. Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil 1-fevraldaggi "Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi yoshlar yetakchisining namunaviy lavozim yo'riqnomasini tasdiqlash to'g'risida"gi 01-10/26-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



A. Sa'dullayev

Yoshlar ishlari agentligining
2022-yil “1 ” mart dagi
01-10/47-son buyrug'iga
ILOVA

Mahalladagi yoshlar yetakchisining namunaviy lavozim YO'RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur namunaviy lavozim yo'riqnomasi (keyingi o'rirlarda – Yo'riqnomasi) mahalladagi yoshlar yetakchisining (keyingi o'rirlarda – Yetakchi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatları, vakolatlari hamda javobgarligini belgilaydi.

2. Yetakchi faoliyati O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish to'g'risida” O'RQ-406-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmoni, “O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risida nizom, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va mazkur Yo'riqnomaga asosan tashkil etilgan.

3. Yetakchi O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limi tashkiliy tuzilmasi tarkibiga kiradi, o'z faoliyati bo'yicha Yoshlar ishlari agentligi, uning tegishli hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tomonidan berilgan o'z faoliyati bilan bog'liq topshiriqlarni amalga oshiradi va ularga hisobdor hisoblanadi, bevosita Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo'limi boshlig'i tomonidan ishga olinadi va unga bo'ysunadi.

4. Yetakchi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, Yoshlar ishlari agentligining normativ-huquqiy hujjatlariga, buyruq va farmoyishlariga, shuningdek ushbu namunaviy lavozim yo'riqnomasiga asosan amalga oshiradi.

5. Mahallada yashovchi 30 yoshdan oshmagan yoshlar Yetakchi faoliyatining obyekti hisoblanadi.

2-bob. Yetakchining asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Yetakchining asosiy asosiy vazifalari hisoblanadi:

“Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishslash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish.

7. Yetakchi o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) “Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish sohasida:

mahallada uyma-uy yurib, yoshlar bilan bevosita va bilvosita muloqot qilish orqali yoshlar balansiga oid ma’lumotlarni to‘liq va to‘g‘ri shakllantiradi;

mahalladagi yoshlar tomonidan bildirilgan taklif va murojaatlarni “Yoshlar portali” elektron platformasiga kiritib boradi;

mahalladagi “Yoshlar daftari”ga kiritilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy psixologik muammosi bor va ishsiz yoshlar ro‘yxatini shakllantirib boradi;

mahalla yoshlari bilan davlat organlari va tashkilot rahbarlarining uchrashuvlarini tashkil etishga ko‘maklashadi;

yoshlarning tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralarini jalb qilish bo‘yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar bandligini ta’minlash masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi bilan hamkorlik qiladi;

b) mahallada yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish sohasida:

mahallada yoshlarni madaniy hordiq chiqarishlari uchun tizimli targ‘ibot tadbirlarini tashkil etadi;

ta’lim muassasalari bilan birgalikda, faol mahalla yoshlarini jalg qilgan holda yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish, ularni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va kamol toptirish, keksalarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy loyihalar va ko‘rik-tanlovlarini amalga oshiradi;

mahalla yoshlari istiqomat qilayotgan hududdagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, teatrler, mustaqillik davrida barpo etilgan inshootlarga tashriflarni uyushtiradi;

mahalla hududida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari bilan hamkorlikda maktab imkoniyatlaridan, jumladan kompyuter xonalari, kutubxona, sport zallari va maydonlaridan darsdan tashqari vaqtarda yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etadi;

d) yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish sohasida:

mahalla yoshlarning intilishi va qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy faolligini oshirish, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga ko‘maklashishga qaratilgan ko‘rgazmalar, ijodiy uchrashuvlar tashkil etish choralarini ko‘radi;

mahallada o‘tkaziladigan madaniy, ma’naviy, vatanparvarlik tadbirlarida hamda sport musobaqalarida ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarni jalg etadi;

ijtimoiy tarmoqlar va messengerlardan samarali foydalanish bo‘yicha Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida targ‘ibot ishlarini amalga oshiradi;

hududlardagi IT-parklar va Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlaridagi “IT” o‘quv kurslarida yoshlarning o‘qishini targ‘ibot qiladi;

e) yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash sohasida:

mahalla yoshlari o‘rtasida intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradi;

mahalla, qishloq, tuman va viloyatlar tarixini o‘rganish bo‘yicha suhbatlar tashkil etadi;

Vatanimiz mustaqilligini himoya qilish yo‘lida jon fido qilgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining ko‘rsatgan jasorati, qahramonligi va mardligini o‘quvchi-yoshlar va uyushmagan yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qiladi;

mahallada voyaga yetib, turli sohalarda mamlakatimiz rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan va faoliyatida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan bugungi kun qahramonlari bilan uchrashuvlar tashkil etadi;

yoshlarning ongu-shuuriga Vatanga sadoqat, fidoyilik va yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘sishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini audio va video targ‘ibot materiallaridan foydalangan holda tashkil etadi;

mahalladagi yoshlar o‘rtasida harbiy vatanparvarlikni targ‘ib etish bo‘yicha tuman (shahar) mudofaa bo‘limlari va harbiy qismlari bilan hamkorlik qiladi;

mahalladagi yoshlar o‘rtasida tinchlikning qadriga yetish, Vatanni himoya qilish sharaflı burch ekanligini targ‘ib qilishga, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan turkum tadbirlarni tashkil etish choralarini ko‘radi;

f) huquqbazarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish sohasida:

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan choralarini ko‘radi;

mahalladagi profilaktika inspektori bilan hamkorlikda:

huquqbazarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlarni tashkil etadi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoshlar bilan ishlaydi;

ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashadi;

reyd tadbirlarida aniqlangan yoshlarning (muntazam dars qoldiruvchilar, tarbiyasi og‘ir yoshlar, kam ta’minlangan) ota-onalari bilan profilaktik ogohlantiruv tadbirlarini amalga oshirish choralarini ko‘radi;

probatsiya xizmati hisobida turadigan yoshlar bilan muntazam shug‘ullanib, ularning bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka jalb etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga ko‘maklashadi;

yoshlar ongida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni, qonun ustuvor, jazo muqarrar ekanligini tushuntirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini amalga oshiradi.

3-bob. Yetakchining ish faoliyatini tashkil etish

8. Yetakchining faoliyati Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan muvofiqlashtiriladi va uslubiy jihatdan ko‘mak berib boriladi.

9. Yetakchi ochiq tanlov asosida Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi orqali markaziy apparat bilan kelishilgan holda tuman (shahar) bo‘limi boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

10. Yetakchining xizmat vazifalari ushbu namunaviy lavozim yo‘riqnomasiga asosan Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

11. Yetakchini vazifa va faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan yig‘ilish va boshqa tadbirlarga jalb qilish, ularning faoliyatiga asossiz aralashish, zimmasiga unga taalluqli bo‘lmagan vazifalarni yuklash taqiqланади.

12. Yetakchi lavozimiga quyidagilar ishga qabul qilinadi:

35 (o‘ttiz besh) yoshdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

ustuvor ravishda oliy ma’lumotli, istisno tariqasida o‘rta maxsus ma’lumotli shaxslar;

yoshlar bilan ishslash tajribasiga ega, yoshlarga shaxsiy fazilati, fidoyiligi, sadoqati va vatanparvarligi bilan namuna ko‘rsatgan holda o‘z ortidan ergashtira oladigan shaxslar;

axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxslar.

Yetakchi lavozimiga nomzodlarni tanlashda muddatli harbiy xizmatni o‘tagan hamda mahalla hududida istiqomat qiladigan shaxslarga ustuvorlik beriladi.

13. Yetakchi faoliyati davomida Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi boshlig‘i tomonidan imzolanadigan, xizmat faoliyatida foydalanadigan ruxsatnomaga ega bo‘ladi.

4-bob. Yetakchining huquqlari

14. Yetakchi o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

mahalladagi yoshlarning taklif-tashabbuslari hamda muammolari yuzasidan mutasaddi tashkilot va idoralarga yuborilgan murojaatlari natijasi yuzasidan ma’lumotlarni olish;

mahalladagi yoshlarga beriladigan ijtimoiy yordam turlari bo‘yicha tavsiya berish yoki rad etish;

“Yoshlar balansi”ni shakllantirish uchun o‘ziga biriktirilgan mahalladagi yoshlar bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishslash va tahlil qilish;

yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yo‘nalishidagi tadbir va loyihalarni amalga oshirishda ijtimoiy soha ob’ektlaridan balansda saqlovchi tashkilot (mulkdor) bilan kelishgan holda foydalanish;

Yoshlar ishlari agentligi direktori tavsiyasi asosida Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining malaka oshirish kurslarida bepul ta’lim olish;

mehnat qonunchiligi hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va imtiyozlardan foydalanish.

5-bob. Yetakchining majburiyatlari

15. Quyidagilar Yetakchining asosiy majburiyatlari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, Yoshlar ishlari agentligi Hay’ati va rahbariyatining normativ-huquqiy hujjatlari, buyruq va farmoyishlari topshiriqlari va ko‘rsatmalari, shuningdek mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari bilan ushbu o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq mahallada korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish;

mahallada yoshlar o‘rtasida shakllanayotgan salbiy holatlar (sodir etilishi rejalashtirilayotgan jinoyatlar, huquqbazarliklar va boshqalar) yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlariga o‘z vaqtida xabar berish;

ish beruvchining qonuniy topshiriqlarini bajarish;

ish tartibi, ichki mehnat intizomi, ijro intizomi, ichki tartib-qoidalari, ushbu yo‘riqnomasi va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga amal qilish;

jamoa shartnomasi shartlariga rioya qilish;

Yoshlar ishlari agentligi tizimiga (faoliyati bilan bog‘liq) aloqador tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda takliflar orqali ishtiroy etish va davlat tilida ish yuritish qoidalariga to‘liq rioya qilish;

faoliyatiga aloqador holda mehnat va ijro intizomi, bajarilgan ishlar yuzasidan hisobotlar berish;

faoliyatida foydalanish uchun berilgan tovar moddiy boyliklardan samarali va oqilona foydalanish.

16. Yetakchi “Yoshlar balansi”, “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portalı” elektron platformalariga kiritiladigan hamda u tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlarning to‘g‘riliqi, haqqoniyligiga mas’ul va javobgar hisoblanadi.

17. Yetakchi beriladigan tavsiyalarning asosliligi, haqqoniyligi va adolatliligi uchun shaxsan mas’ul hisoblanadi.

18. Yetakchiga quyidagilar taqiqланади:

o‘ziga biriktirilmagan mahallalarning ish faoliyatiga aralashish;

ish faoliyatida o‘ziga ma’lum bo‘lgan shaxsga doir ma’lumotlarni nomuayyan doiradagi shaxslarga oshkor etish, shu jumladan shaxsga doir ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida hammaga ma’lum qilish, Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirish yoki shaxsga doir ma’lumotlardan biror-bir boshqa usul bilan foydalanish imkonini berishga qaratilgan harakatlar orqali tarqatish;

qonunchilikda belgilangan imtiyoz va vakolatlardan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida foydalanish;

o‘zining vazifa va faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan yig‘ilish va boshqa tadbirlarni tashkil etish va ularda ishtirok etish va bunga mahalla yoshlarini jalg etish;

mahallada 100 va undan ortiq kishilar ishtirokidagi ommaviy tadbirlarni tuman (shahar) hokimliklari ruxsatnomasisiz tashkil etish;

xorijiy (xalqaro) tashkilotlar, ularning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxona va filiallari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatlarga kirishish.

Ushbu bandda keltirilgan harakatlarning Yetakchi tomonidan amalga oshirilishi mehnat vazifalarini bir marta qo‘pol ravishda buzish hisoblanadi va Yetakchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini belgilangan tartibda ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish uchun asos hisoblanadi.

19. Yetakchi uning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o‘z vaqtida va belgilangan tartibda amalga oshirilishi uchun javobgar hisoblanadi.

6-bob. Yetakchining mehnatiga haq to‘lash

20. Yetakchining oylik ish haqi miqdori u biriktirilgan mahalladagi xonodonlar soniga mutanosib ravishda quyidagicha belgilanadi:

xonodonlar soni 500 tagacha bo‘lgan mahallada – mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 5 baravari miqdorida;

xonodonlar soni 501 tadan 1 000 tagacha bo‘lgan mahallada – mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 5,5 baravari miqdorida;

xonodonlar soni 1 000 tadan ortiq bo‘lgan mahallada – mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 6 baravari miqdorida.

7-bob. Yetakchining faoliyatini baholash

21. Yetakchining faoliyati Yoshlar ishlari agentligi tomonidan belgilangan tartibda baholanadi.

22. Baholash natijalariga ko‘ra Yoshlar ishlari agentligi tomonidan faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, Yetakchi har chorak yakuni bo‘yicha mukofotlanishi, jumladan oylik ish haqining 50 foizigacha miqdorda mukofotlanishi yoki qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.